

O'QITUVCHILAR QADR-QIMMATI QONUN HIMOYASIDA

**Bazarbaeva Ugilxan Bayrambaevna**

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti Milliy goya, manaviyat asoslari va huquq talimi  
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Bugungi rivojlanayotgan zamonda turli sohalarning ósishida asosiy rol óynaydigan shaxslar ham ustoz tarbiyasini olgan bóladir. Kelajak avlodni tarbiyalashda buyuk óringa ega bólgan kasb egalari o'qituvchilar hisoblanadi. Jamiyat osoyishtaligining saqlanishi, Vatanimizning jadal darajada rivojlanishi, dóstlik munosabatlarning yaxshi bólishi, insonlarning bir-biri bilan hamjihatlik asosida ish olib borishi, yangi izlanishlarning paydo bólishi bolalikdagi tarbiyaga borib taqaladi. Bu tarbiyani beruvchi inson ustoz deb nomlanadi. Hozirgi kunda óqituvchilarning qadr-qimmatini qonun bilan himoya qilinmoqda. Ustoz-o'qituvchilarni qadr-qimmatining yuqori darajada ekanligi haqida ko'rib chiqiladi.*

**Kalit sózlar:** *óqituvchilar, tarbiya, hurmat-e'tibor, jamiyat, qadr-qimmat, fikrlar, buyuk allomalar, qonun, muallim.*

*Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodlarimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.*

**SH.M.Mirziyoyev**

Murakkab va jadal rivojlanayotgan zamonda inson tarbiyasi asosiy vazifa bólib qolmoqda. Jamiyatni rivojlantirishda sog'lom va tarbiyaviy avlodning bo'lishi mamlakatimizning boyligi hisoblanadi. Bolalikdan maktabda ustozlar bergan tarbiyaning orqasidan kóplagan yutuqlarga erishamiz. Inson tarbiyasida ustozning tutgan roli haqida so'z borsa buyuk alloma Alisher Navoining :

“Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmush ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila” g'azzali yodimizga keladi. Ustoz-bu balog'at yoshiga yetib borishga ko'maklashuvchi, yoshlikdan qalbimizga ehtirom, kattalarga hurmat, o'z yaqin insonlarini sevishni o'rgatuvchi, zamonining eng qadrli odami bo'lish kerakligini bizga tushuntiruvchi inson. O'qituvchining mahorati ta'lim-tarbiyani, bilimlarni boshqalarga yetkaza olishida, qiyin bo'lgan ishlarni ham oson yo'l bilan o'rgata olishidir. Bizning umrimizdagi dastlabki ustozimiz ota-onamiz. Ular bizni dunyoga keltirdi, hayot uchun kerak bo'lgan bilimlarni berdi. Bizning

dunyoqarashimizni shakllantirdi. Atrofimizdagi insonlarga munosabatimizni yaxshi bo'lishni o'rgatdi. O'qituvchilar 11 yil davomida bizga dunyoviy , iqtisodiy, ma'daniy, ijtimoiy, tarixiy bilimlarni beradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'qituvchi-ustozlarni qayerda ishlamasin, qanday kasb egasi bo'lmasin, unga bilim va tarbiya berib, mustaqil hayotga yo'llagan inson sifatida esga olgan. "Haqiqatan ham, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini bag'ishlab, barchamizga ezgulikdan saboq bergan, otadek mo'tabar, onadek mehribon siz, aziz ustozlarning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan mashaqqatli va sharaflı mehnatingiz uchun har qancha tahsin va tashakkurlar aytsak, arziydi ", - dedi Prezident.O'qituvchilarimiz bizga kichkinaligimizdan ko'pgina yaxshi fazilatlarni, odob-axloq qoidalarini va ularga amal qilishni o'rgatadigan, harqanday vaziyatda ham qilgan ishimizga afsuslanmaslik kerakligin, buning uchun o'ylab ish tutish zarurligin aytgan. Bu bilimlar hamma uchun ko'rinmas o'lchovga ega va bebaho hisoblanadi.

"Agar mendan sizni nima qiynaydi?"- deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman- deydi yurt boshchimiz. Bu so'zlarni o'zi ham o'qituvchi-ustozlarga degan katta mas'uliyatni his qildiradi.Ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat, azm-u shijoat bilan mehnat qilishni talab etadi. Mana shunday sharaflı vazifani ado etishda men siz, muhtaram ustoz va murabbiylarga har tomonlama yordam va ko'mak berishga tayyor ekanimni yana bir bor izhor etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxit-u saodat, olijanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman - dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Oilamizdan olinib boshlanadigan tarbiya ustozlarimiz tomonidan yana da boyitilib boriladi. Tarbiya bu bizning umrimiz davomida ko'rinib turadigan nishonimiz hisoblanadi. Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir".

Ko'rib turganimizdek tarbiya bu davr tanlamaydi. U zamonda ham bu zamonda ham tarbiya masalasi asosiy masala bo'lgan. Bola kichkinaligidan , aniqrog'i tug'ilganidan boshlab tarbiyalanib borishi kerak.

Farzandinga hunar va fazl o'rgatmoqda taqsir qilmag'il va har ilmni o'rgatuvda muallimlar ta'lim uchun ursalar, sen shavqat kurg;uzgil, mayli ursunlar, nedimkim yosh-ug'lon ilm va adabni tayoq bilan o'rganur va o'z ixtiyari bila o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o'z qo'ling bila urmag'il, muallimlarning tayog'i bila qo'rqutg'il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendan o'g'lining ko'nglida gina qolmasin. Ammo uning ko'ziga o'zingni g'aybatqil ko'rguzg'il, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo'rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa , qudrating yetkuncha undin ayamag'il, to tanga havosi bila sening o'limingni tilamasin.Farzandga adab, hunar o'rgatmoqni meros deb bilgil. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining ozi unga o'rgatur.Undoqkim debdurlar , ota-ona tarbiyalamasa , kecha va kundiz uni tarbiyalaydur.[1]

Qay zamonda bo'lmasin xalqimiz ustoz degan ulug' ismni ardoqlab keladi. Jamiyatimizda muallimlarning o'z o'рни bo'lak. Dunyodagi kasblarning eng yuqorisi- muallimlikdur. Muallim-shogirdning miyassiga o'zining umr yo'lidan olingan bilimni singdiradi. Kelasi avlodlarning ongli tarzda o'ylab, shakllanishin kuzatadi. Xalqimizga kerak bo'lgan barcha kasb egalari shu ulug' insonlarning tarbiyasini olgan.. Ustoz degan ulug' ismni kichkinaligimizdan boshlab hurmat qilib kelamiz, bundan keyin ham undan ortiq bo'lmasa, bundan kam bo'lmasligi aniq. "Odamning-odamgarchiligi- yaxshi ustozdan" deb Abay bobomiz aytganidek, muallim bilimi va zakovati o'quvchining bo'lajak ozig'i bo'lib hisoblanadi. Yaxshi ustozga yo'lig'ib, ta'lim-tarbiya olgan yosh shogird hayot yo'lida qiyinchiliklardan qaytmasdan kurashib, kelajakda yo'nalishidan toymasligi aniq.

O'zbekiston Respublikasining yangidan qabul qilingan Konstitutsiyasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilinishi aytib o'tilgan.[2]

Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunga ko'ra pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ularning ish faoliyati himoyalanaadi. Davlat ta'lim tashkilotlarining pedagoglariga davomiyliigi ko'pi bilan 56 kalendar kundan iborat bo'lgan haq to'lanadigan har yilgi asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tili kafolatlanadi. Pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish, shuningdek unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi. O'qituvchilarni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, asosan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish mumkin emas. Davlat umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar davlat tomonidan bepul ta'minlanadi. Respublikaning olis hududlarida uy-joylarni ijaraga olganlik uchun har oylik kompensatsiya to'lanishi, farzandlari davlat bog'chalariga imtiyozli ro'yxatga asosan qabul qilinishi, davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish qonun bilan himoyalanaadi. Pedagogning mehnatiga haq to'lash bo'yicha qoidalar yana ham mustahkamlangan. Bunga asosan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) uchun bazaviy lavozim maoshining 30 foizigacha, fan doktori (GSc) va professor ilmiy unvoniga ega shaxslar uchun bazaviy lavozim maoshinig 60 foizigacha har oylik ustama to'lanishi qonunda alohida belgilangan. Ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir. Qonun nning 3-moddasiga asosan:

• O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi;

• pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi;

• pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlar ro'yxati tegishincha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi;

• ta'lim tizimida ishlayotgan pedagogning kasbiy darajasiga doir talablar Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida hamda pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi;

• agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin;

• zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun jalb etishi mumkin;

• ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli. [3]

Har qanday vaziyatda ham , qiyin paytlarda , yaxshi-yomon kunlarda yaqinlarni qo'llab-quvvatlash, atrofimizdagilarga kechirimli bo'lish, insonlarning yaxshiligini unutmaslik, kattalarga gap qaytarmaslik, bir-birimizga do'stona munosabatda bo'lish kerakligi, birovlarining ko'ngliga keladigan gaplarni aytmasslik, hechqachon yo'lg'on gapirmaslik, har kuni savob ishlash kerakligini bizga yoshligimizda o'rgatgan ustozlarga tashakkur aytasang ham kam.

Kelajak avlodni bilimli, tarbiyasi, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi va murabbiylarning hissasi benihoya katta. Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan shaxs hamda kelajak avlod vakillarini bilim cho'qqilari, yuksak ma'naviyat sari yuqori insoniy fazilatlar sohibi bo'lishiga da'vat etadigan murabbiy sifatida faoliyat yuritishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Farzandlar ta'lim-tarbiyasi, kamoloti haqida qayg'urish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir. Shu sababli o'qituvchi va murabbiylar yurtimizda sharafli kasb egalari sifatida har doim hurmat va e'tibordadir. O'qituvchi bugun o'zi ta'lim berayotgan shogirdining kamoloti ila kelajakka poydevor qo'yadi. Yosh avlodni komillik va kamolot cho'qqisiga o'qituvchi — ustoz boshlab boradi. Fidoyi, mehnatkash muallim-o'qituvchilar o'z shogirdlariga bilim berish bilan birga ular qalbiga insonga xos eng go'zal ezgu xislatlarni, mehr-oqibat va odamiylik tuyg'ularini

singdirib boradi. Turli sohalarda o'z iqtidori, qobiliyati, mahorati va bilim salohiyati bilan yuqori natijalarga erishib kelayotgan o'g'il-qizlarimizning muvaf-fa-qi-yatlari orqasida avvalo, aziz ustozlarning zahmatli meh-natlari mujassam. Mamlakatimizni rijovlantiradigan dastlabki qadamni uyga taqqoslasak poydevordagi g'ishtlar biz , yoshlar bo'lsak, ana shu g'ishtni qaddiga keltirayotgan bu ustozlardir. Birinchi ustozim mening qalbidan alohida joy egallagan shaxs. Har doim bu ulug' zotni ko'rganimda ich-ichimdan quvonib, yuzimda tabassum paydo bo'ladi. Bizga faqat ikki yil davomida ta'lim va tarbiya bergan bo'lsa da bu vaqtda hayotimdagi eng muhim saboqlarni oldim. Bu kabi ustoz-o'qituvchilar bor bo'lgan jamiyatda albatta yaxshi insonlar tarbiyalanib chiqadi. Har qanday kasbning egasining ham ustoz bo'ladi. U aktyor bo'lsin, muallim bo'lsin, advokat bo'lsin, uchuvchi, haydovchi hamma kasb egasining birinchi ustoz bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimizda "Ustoz- otangdek ulug' " deb hurmat bilan tilga olinadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Unsurumaoliy Kaykovus. Qabusnoma. -T.:O'qituvchi nashriyoti, 1986. -84b
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasi.2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo'li orqali qabul qilingan yangi Konstituciya. 52-modda
- 3."Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun. -T.:2024